

25-Aprel, 2026-yil

JIGAR SIRROZI TIBBIY-IJTIMOY MUAMMO SIFATIDA

To‘ychibekov Sh.M

Ikromov N.R

Farg‘ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti1

Farg‘ona viloyati Ko‘p tarmoqli tibbiyot markazi2

KIRISH

Jigar sirrozi surunkali jigar kasalliklarining yakuniy bosqichi bo‘lib, global miqyosda yiliga 1,03 million o‘limga sabab bo‘ladi (GBD Cirrhosis Collaborators, 2020). O‘zbekistonda kasallanish ko‘rsatkichi 2015-2023 yillar ichida 38 400 dan 54 700 bemorga - 42,4 foizga oshdi; 100 000 aholiga o‘lim darajasi 8,4 dan 10,6 ga ko‘tarildi. Kasallik nafaqat tibbiy, balki chuqur demografik, mehnat va iqtisodiy oqibatlar keltirib chiqarishi uni tibbiy-ijtimoiy muammo sifatida ko‘rib chiqishni zarur qiladi.

Tadqiqot maqsadi. O‘zbekistonda jigar sirrozining epidemiologik ko‘rsatkichlarini, etiologik tarkibini, ijtimoiy-iqtisodiy yukini va kech tashxis muammosini retrospektiv-analitik usulda o‘rganish; profilaktika va erta aniqlashning ijtimoiy-iqtisodiy samaradorligini asoslash.

Materiallar va usullar. Retrospektiv-analitik, hujjatli-statistik tadqiqot (2024). Ma'lumot manbalari: O‘zR SSV rasmiy statistik to‘plamlari (2015-2023), arxiv ma'lumotlari (n=2 860 bemor, 2020-2023) va GBD 2019 ma'lumotlari. Tahlil usullari: trend tahlil, yosh-jins tarkib tahlili, DALY hisob-kitobi (GBD metodologiyasi), ijtimoiy-iqtisodiy yuk hisoblash (human capital yondashuvi). SPSS 28.0.

Natijalar va muhokamalar. Dispanser ro‘yxatidagi bemorlar soni 8 yil ichida 42,4 foizga oshdi. O‘lim ko‘rsatkichi 100 000 aholiga 10,6 ni tashkil etdi; o‘limlarning 68,4 foizi 40–64 yosh guruhiga - mehnatga layoqatli yoshdagi shaxslarga to‘g‘ri keldi. Erkaklar o‘lim ko‘rsatkichi ayollarga nisbatan 2,1 barobar yuqori. DALY ko‘rsatkichi 100 000 aholiga 312 birlik.

Arxiv ma'lumotlari bo‘yicha: virusli gepatit B - 38,4%, gepatit C - 22,7%, alkogol bilan bog‘liq - 19,3%, metabolik (MASLD) - 11,6%, boshqa - 8,0%. Alkogol bilan bog‘liq sirroz ulushi 8 yil ichida 12,1% dan 19,3% ga (+59,5%), MASLD bilan bog‘liq sirroz 6,4% dan 11,6% ga (+81,3%) oshdi.

Birinchi marta jigar sirrozi tashxisi qo‘yilgan bemorlarning 64,3 foizida kasallik dekompensatsiyalangan bosqichda (Child-Pugh B/C) aniqlandi. Qishloq aholisida bu ko‘rsatkich shahar aholisiga nisbatan 1,6 barobar yuqori ($p < 0,01$). Kasallik boshlanishidan tashxis qo‘yilgunga qadar o‘rtacha davr $6,4 \pm 2,8$ yil. Virusli gepatitlar bo‘yicha dispanser kuzatuvida muntazam bo‘lganlar - atigi 34,1 foiz.

O‘tgan 2023-yilda jigar sirrozining umumiy iqtisodiy yuki taxminan 1,14 trillion so‘mni tashkil etdi: to‘g‘ridan-to‘g‘ri tibbiy xarajatlar - 412 mlrd so‘m (36,1%), bilvosita xarajatlar (erta nogironlik, mehnat yo‘qotishi) - 728 mlrd so‘m (63,9%). Kech aniqlangan bir bemor barvaqt aniqlangan bemorga nisbatan o‘rtacha 3,4 barobar ko‘proq davolash xarajati talab qiladi.

Kasallanish va o‘lim ko‘rsatkichlarining o‘sishi, mehnatga layoqatli yoshdagi shaxslar orasidagi yuqori o‘lim ulushi (68,4%), kech tashxis muammosi va katta ijtimoiy-iqtisodiy

25-Aprel, 2026-yil

yuk (1,14 trillion so‘m) jigar sirrozini O‘zbekiston uchun dolzarb tibbiy-ijtimoiy muammo sifatida belgilaydi. Alkogol va MASLD ulushining o‘shishi kasallikning ijtimoiy determinantlarga bog‘liqligini ko‘rsatadi. Erta tashxisga sarmoya kiritish iqtisodiy jihatdan oqilona: profilaktika va erta aniqlashga sarflangan har bir so‘m davolash xarajatlarining bir necha barobarini tejaydi.

Xulosalar. Jigar sirrozi O‘zbekistonda ijtimoiy ahamiyatli kasallik bo‘lib, 8 yil ichida kasallanish 42,4%, o‘lim ko‘rsatkichi 26,2% ga oshdi; DALY - 100 000 aholiga 312 birlik. O‘limlarning 68,4% mehnatga layoqatli 40–64 yosh guruhida qayd etilishi va yillik ijtimoiy-iqtisodiy yuk 1,14 trillion so‘mni tashkil etishi kasallikning milliy iqtisodiyotga salbiy ta'sirini ko‘rsatadi. Bemorlarning 64,3% da kasallikning dekompensatsiyalangan bosqichda aniqlanishi va dispanser kuzatuv qamrovining pastligi (34,1%) - tizimli muammo sifatida bartaraf etilishi zarur. HBV/HCV skrinigini kengaytirish, birlamchi tibbiyotda jigar elastografiyasini joriy etish, qishloq aholisini dispanser kuzatuvga faol jalb etish va alkogol/MASLD profilaktikasi dasturlarini kuchaytirish strategik ustuvor yo‘nalishlar sifatida tavsiya etiladi.